

EDUCATION CLUSTERS AS A FACTOR IN ENHANCING THE
COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONSОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ КЛАСТЕРЫ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯTA'LIM KLASSTERLARI OTMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH
OMILI SIFATIDA

Imamova Nilufar Asamutdinovna

TDSu, Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i,
mustaqil izlanuvchiE-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz<https://doi.org/10.5281/zenodo.17946861>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ta'lim klasterlari oliy ta'lim muassasalarining (OTM) raqobatbardoshligini oshirishning muhim institutsional va innovatsion omili sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tezisdagi ta'lim klasterlarining mohiyati, shakllanish mexanizmlari hamda universitet-ilmiy muassasa-biznes-davlat o'rtasidagi hamkorlikning (Triple Helix modeli) OTM faoliyati samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ta'lim klasterlari orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va xalqaro reytinglarda pozitsiyalarni mustahkamlash imkoniyatlari asoslab beriladi.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются образовательные кластеры как важный институциональный и инновационный фактор повышения конкурентоспособности организаций высшего образования (ОВО). В тезисе раскрываются сущность, структура и механизмы формирования образовательных кластеров, а также анализируется роль взаимодействия университетов, научно-исследовательских учреждений, бизнеса и государства в рамках модели «тройной спирали». Особое внимание уделяется влиянию образовательных кластеров на развитие инновационной инфраструктуры, повышение качества подготовки кадров, коммерциализацию результатов научных исследований и укрепление позиций вузов в международных рейтингах.

Abstract: This thesis examines education clusters as a key institutional and innovative factor in enhancing the competitiveness of higher education institutions (HEIs). The thesis provides a theoretical and analytical overview of the concept, structure, and development mechanisms of education clusters, highlighting the role of effective cooperation among universities, research institutions, business, and government within the framework of the Triple Helix model. Special attention is given to the contribution of education clusters to the development of innovation infrastructure, improvement of the quality of human capital, commercialization of research outcomes, and strengthening the international positioning of universities.

Kalit so'zlar:

ta'lim klasterlari, oliy ta'lim muassasalari, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, Triple Helix modeli, ta'lim-ilim-biznes hamkorligi

Ключевые слова: образовательные кластеры, организации высшего образования, конкурентоспособность, инновационное развитие, модель «тройной спирали», взаимодействие университет–бизнес–государство.

Keywords: education clusters, higher education institutions, competitiveness, innovation-driven development, Triple Helix model, university–industry–government collaboration.

Kirish

Ta'lim tizimi har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuni hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv jarayonlarida ta'lim sohasi nafaqat inson kapitalini rivojlantirishda, balki iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda ham hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Bugungi kunda jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, ta'lim klasterlari va ilg'or pedagogik metodlar ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilm-fanni iqtisodiyot bilan chambarchas bog'lashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham ta'lim sohasi milliy taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib, inson kapitali sifati va mehnat bozorida kadrlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bois, mazkur tezisdagi ta'lim tizimidagi samarali ta'lim modeli sanalgan ta'lim klasterlari faoliyati, ularning oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati tahlili amalga oshiriladi.

Ta'lim klasterlari – bu oliy ta'lim muassasasi – universitet “yadro” bo'lgan hamda turli darajadagi ta'lim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, biznes va davlat organlarining integratsiyasiga asoslangan strategik hamkorlik tizimi bo'lib, u sifatli ta'lim xizmatlarini yaratish, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan faoliyat shaklidir. Triple Helix modeli doirasida ta'lim klasterlari universitetlarni nafaqat bilim markazi, balki iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishining faol ishtirokchisi sifatida shakllantiradi.

Ta'lim klasterlarining asosiy vazifalari sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, innovatsion infratuzilmani yaratish (laboratoriyalar, inkubatorlar, texnoparklar), kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va malakali ishchi kuchini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va yangi biznes loyihalarini ishlab chiqish hamda OTMlarning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarini mustahkamlashdan iborat.

Shu bilan birga, ta'lim klasterlari doirasida hamkorlik orqali universitetlar o'z resurslarini samarali taqsimlab, tadqiqot va ta'lim jarayonlarining sifatini oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Ta'lim klasterlarida qatnashuvchi OTMlar integratsion faoliyat natijasida innovatsion va raqobatbardosh universitetlarga aylanadilar. Raqobatbardosh universitet – bu nafaqat ilmiy va akademik natijalarga erishgan, balki talabalar va ish beruvchilar talablariga mos kadrlar tayyorlovchi, xalqaro ta'lim xizmatlari bozorining faol ishtirokchisi hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi asosiy drayveri sanaladi. Ta'lim klasterlari OTMlarga innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro hamkorlik va xalqaro reytinglarga kirish bo'yicha

raqobat ustunligini ta'minlab beradi. Ya'ni, klasterlar orqali OTMlar zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va ilg'or pedagogik metodlarni joriy qila olish; biznes va sanoat bilan hamkorlikda amaliyot va stajirovkalar tashkil etish natijasida talabalar real mehnat bozoriga tayyorlash; ilmiy ishlanmalarni startaplar va innovatsion loyihalar orqali iqtisodiyotga jalb qilish; klasterlar orqali universitetlar xorijiy hamkorlikni kengaytirish va xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bu jarayonlarning samarali natijasida universitetlarning xalqaro reytinglardagi mavqei ham mustahkamlanib boradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim klasterlari OTMlarni global ta'lim bozorida raqobatbardosh qilishning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim klasterlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator islohotlar, xususan, milliy universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasida hamkorlik loyihalari, xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar va talabalar almashinuvi, zamonaviy laboratoriyalar va innovatsion markazlar tashkil etilishi hamda startap va innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tashabbuslarning natijasida OTMlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aitbayeva, G. D., Zhuzbanova, M. K., Kulgildinova, T. A., Tusupbekova, G. M., & Uaisova, G. I. (2016). Formation of education clusters as a way to improve education. *International Journal of Environmental & Science Education*, 11(9), 3053–3064. <https://doi.org/10.12973/ijese.2016.735a>
2. N.Imamova. Ta'lim klasterlari faoliyatining barqaror taraqqiyotdagi o'rni. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2025-yil, № 8-son. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16946695> Toshkent. 748-752 betlar.
3. Madichie, N. O., & Agu, A. G. (2022). The role of universities in scaling up informal entrepreneurship. *Industry and Higher Education*, 37(1), 94-109. <https://doi.org/10.1177/09504222221101548>.
4. Engel, J. S. (2014). *Global clusters of innovation: Entrepreneurial engines of economic growth around the world*. Edward Elgar Publishing. 391 p.
5. Mambetkaziyeu, A., Baikenov, Z., Konopyanova, G. (2022). Cluster analysis of the effectiveness of management of higher education institutions. *Eastern-European Journal of Enterprise Technologies*, 6 (3 (120)), 26–31. doi: <https://doi.org/10.15587/1729-4061.2022.265860>.
6. Т.В.Фадина. Образовательный кластер: особенности формирования и функционирования на рынке образовательных услуг. *Известия Гомельского государственного университета имени Ф. Скорины*, №3(66), 2011. Стр. 182-187.